

BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARI ONGI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

M.M.To’lanova
ADPI Pedagogika va psixologiya
kafedrası o’qituvchisi
Jo’rayeva Odina Ilxomjon qizi
Musiqa ta’limi yo’nalishi 2-bosqich
talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola mamlakatimizda yosh avlodning ongi va tafakkurining rivojlanishiga oila va maktab hamkorligi ijobiy ta’sir etadi. Shuning uchun ham maktab va oila hamkorligini uzluksiz ravishda yo’lga qo’yish zamon talabiga aylanganligi to’g’risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: oila, oila va maktab hamkorligi, milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar.

Yangi O’zbekiston respublikasi yoshlar tarbiyasini davlat siyosati darajasiga olib chiqqanligi sababli, unga berilayotgan e’tibor diqqatga sazavordir. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasini takaomillashtirish masalasi doimiy ravishda dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalani yuksaltirish oila va maktab hamkorligida amalga oshirilsa yanada samarali bo’ladi. Oila va maktab hamkorligi tizimini yo’lga qo’yishda har bir o’qituvchi birinchi navbatda oilaning o’ziga xos xususiyatlarini diqqat markazidan qochirmasligi kerak. Buning uchun oilaga berilgan ta’rifga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Oila – odamlarning tabiiy iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Demak, oila bir ma’naviy tizimligi bilan xarakterlanar ekan, biz ham unga uyg’unlashtirilgan hamkorlikni taklif etishimiz foydadan holi bo’lmaydi. Ma’lumki, oila asosan milliy tarbiyaga suyangan holda o’z a’zolarining ongi va tafakkurini rivojlantirib, tarbiyalab boradi. Shuning uchun ham bu hamkorlik tizimida quyidagilarga e’tiborni qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular:

- ota-bobolarimizning turmush tarzi;
- milliy qadriyatlar;
- milliy urf-odatlar;
- milliy-ma’naviy boyliklar;
- milliy madaniyat;
- milliy g’urur;
- milliy iftixorlar;
- milliy ong;
- milliy psixologiya kabilar.

Biz boshlang’ich sinf o’quvchilari faoliyatida yuqorida sanab o’tilgan jihatlarini tarkib toptirishimiz uchun ta’lim-tarbiya jarayoniga oila va maktab hamkorligi asosida o’quvchilar ongi va tafakkurini rivojlantirish mumkin.

Bugungi kun boshlang’ich sinf o’quvchilarini bilimli, salohiyatli, iqtidorli qilib tarbiyalashda ongi va tafakkurini rivojlantirish kerak. Bunday xislatlarni rivojlantirish uchun oila va maktabning hamkorligi beqiyos ahamiyatga ega. Maktab bilan oila o’rtasidagi mukammal tarzda tuzilgan hamkorlik, boshlang’ich sinf o’quvchilarini ongi va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini e’tiborga olgan pedagogik jamoa har bir otanalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirishi mazkur tizim faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Shuning uchun ham pedagoglar, ota-onalarga bola tarbiyasida nimalarga e’tibor qaratishi kerakligi borasida pedagogik tavsiyalar berib borishi bu tizimning samarali ish yuritishiga zamin tayyorlaydi.

Ota-onalar bolalar psixologiyasini bilishadimi? Ota-onalar o’z bolalarining mayli, qiziqishi, ehtiyojlari bilan qiziqib ko’rishganmi?

Maktab o’qituvchisidan o’z bolasi to’g’risida ma’lumotlar olib turganmi? Har bir ota-ona boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’tkazgan tadbirlarda faol ishtirok etganmi? - degan savollarga to’liq javob bera oladigan tarzda bu jarayon ishtirokchisi bo’lsagina, shunda biz oiladan mukammal tarbiyali o’g’il qizlar yetishib chiqadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Aks holda, esa tarbiyasi og’ir bolalarni ham uchratishimizga to’g’ri kelib qoladi. Bunday holat boshlang’ich sinf o’qituvchilariga alohida mas’uliyat yuklaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu rivoyat orqali oilada bolalarni milliy tarbiya mezonlari asosida tarbiyalash mumkin. Shu o’rinda shuni ta’kidlash kerakki, bu hikoya orqali ona o’z qizini ertangi kuni haqida qayg’urib o’z farzandini oilaga tayyorlash bilan birga yosh qizini oilaga bo’lgan munosabati ongi va tafakkurida rivojlantirmoqda. Jumladan ona qiziga:

- tushuntirish;
 - namuna ko’rsatish;
 - odatlantirish;
 - iltimos qilish;
 - tilak-istak bildirish;
 - yolvorish, iltijo qilish;
 - maslahat berish;
 - ko’ndirish;
 - undash;
 - uzr so’rash kabi tushunchalarni qizi ongi va tafakkurida shakllantirmoqdalar.
- Bundan tashqari, insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida:
- o’git-nasihatlar;
 - ibrat ko’rsatish;
 - ma’qullash va maqtash;
 - mukofotlash kabilardan foydalanilsa samarali natijalar berishi kuzatishlardan

ma’lum.

Maktab va oila hamkorligining yaxshi yo’lga qo’yilishi o’qituvchilarga:

- o’quvchining maktabga kelishida;
- o’quvchining yaxshi o’qishida;
- o’quvchining tarbiyasida;
- o’quvchining darslarni yaxshi o’zlashtirib faol ishtirokchiga aylanishida oila bilan hamkorlik o’qituvchiga qulayliklar yaratadi va o’quvchi bilan ishlashda o’qituvchi qiynalmaydi.

Maktab va oila hamkorligining yaxshi yo’lga qo’yilishi ota-onalarga:

- farzandlari yaxshi o’qishini;
- ya’ni qarovsiz qolmasligini;
- mustaqil aqlli, dono fikrlashlarida ota-onalarga qulayliklar yaratadi.

Demak, bunday tizim yo avlodning ongi va tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Shuning uchun ham maktab va oila hamkorligini uzluksiz ravishda yo’lga qo’yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son Farmoni.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2022 yil 1 martdagi PF-81-son Farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo’mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” 2022 yil 1 martdagi PQ-146-son qarori.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llabquvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2022 yil 7 martdagi PF-87-son Farmoni.

5. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.